



# AIFU



## ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSI BUTUN DUNYO OLIMLARI NIGOHIDA

Shaxnoza Nasimovna Axmedova  
o'qituvchi  
O'zbekiston

Shohsanam Husniddin qizi Mahmudjonova  
Talaba  
O'zbekiston

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek mumtoz adabiyotining buyuk siymosi Zahiriddin Muhammad Bobur merosi butun dunyo olimlarining e'tiborini qozongani va maqtoqlariga sabab bo'lgani bundan tashqari, Movorounnahr tarixida o'chmas iz qoldirgani Afg'oniston, Pokiston va Hindiston tarixida tub burilish yasagani, bu mamlakatlar xalqlarining madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotida sezilarli ishlarni amalga oshirgani haqida yozilgan.

**Kalit so'zlar:** Boburnoma, etnografiya, geografiya, Voqeanoma, Movorounnahr, tipografiya, Devoni Bobur, Ko'hinur olmosi.

So'nggi temuriy shahzodalardan Zahiriddin Muhammad Boburning jozibador shaxsi, jo'shqin hayoti va faoliyati, insoniy fazilatlari, jahon faniga qo'shgan hissasi hamda avlodlariga bag'ishlab ko'plab ilmiy-tarixiy, badiiy asarlar yaratilgan. Ta'bir joiz bo'lsa, jahon tarixnavislik ilmida "Eng ko'p va xo'p" o'rganilgan vatandoshimiz ham Boburdir. Ayni kunga qadar o'zbek yozuvchilaridan tashqari Bobur haqida asar yaratgan bir necha o'nlab chet ellik mualliflarning nomlari tanish. Jumladan, 1995-yili "Cho'lpon" nashriyotida ingliz tarixchisi U.Erskinning "Bobur Hindistonda" asari, hind tarixchisi L.P.Sharmaning 1988-yili Dehlida bosilgan "Boburiylar saltanati" asari, amerikalik olim S.M.Berkning "Akbarshoh – boburiylarlarning eng buyugi" (Berk Akbarshoh shaxsiyati va faoliyati misolida Hindistonga Bobur asos solgan, jahon tarixiga, "Buyuk mo'g'ul imperiyasi" nomi bilan kirgan saltanatning mustahkam tomir

yo'zish jarayonini tasvirlaydi) asarlarida Boburga zamondosh tarixchilarning qo'lyozmalari, Hindiston tarixiga oid tadqiqotlar, XX asrning jahonga mashhur olim va tarjimonlarining asarlarida Boburning butun hayot yo'li, bolalik, o'spirinlik, yigitlik yillari, tashvishli kunlari, hukmronlik faoliyati, diniy-falsafiy qarashlari, davlatni boshqarish usuli, madaniyat va san'atga munosabati singari masalalar tasvirlangan[1].

Bugungi kunda Bobur va Boburiylarga taalluqli ko'plab moddiy boylik va asarlar, qo'lyozmalar dunyo bo'ylab keng tarqalgan. Masalan, unga tegishli noyob qilich Nyu-Yorkning Metropoliten muzeyida saqlanadi. Bobomizga in'om qilingan Ko'hinur olmosi esa Buyuk Britaniya qirollik oilasi tomonidan tasarruf etiladi. Buyuk sarkarda va davlat arbobi Boburning tarixiy ashyolari dunyo muzeylari va shaxsiy kolleksiyalardan joy olgan.

Shuningdek, Hindistonda ham Bobur va Boburiylarga tegishli buyumlar, tarixiy manbalar juda ko'p. 1528- yilda yozilgan "Devoni Bobur"ning asl qo'lyozmasi va 1640- yilda chizilgan "Shahzoda Doro Shukuhning to'y marosimi" miniatyurasining nusxalari shular jumlasidan.

Ushbu noyob asarlar nusxalari O'zbekiston Tashqi ishlar vazirligi ko'magida mamlakatimizga olib kelindi. Ma'lumotlarga ko'ra, Bobur hayotlik chog'ida ikkita devon tuzgan. Ularning biriga Movarounnahr va Afg'onistonda, ikkinchisiga esa Hindistonda yozgan she'rlari kiritilgan. Bu haqda "Boburnoma"ning milodiy 1519-yildagi (hijriy 925 -yil) voqealar bayonida shunday deyiladi: "Hofiz Mir kotibning og'a-inisi Samarqandtin kelib erdi, bu fursatta Samarqandg'a ruxsat berib, Po'lod Sultong'a devonimni yibordim".

Bobur devoni Sharq mumtoz lirik janrlardagi asarlar majmuasidan iborat to'plam. Hozirgi kungacha dunyo qo'lyozma fondlari va kutubxonalarida Bobur devonining 9 ta qo'lyozma nusxasi borligi aniqlangan[2].

Zahiriddin Muhammad Bobur qilgan ijodiy merosining eng muxim va eng yirigi O'rta Osiyo, Afg'oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, geografiyasi, etnografiyasiga oid nodir va qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan v o'sha davr o'zbek klassik adabiyoti va adabiy tilining yorqin namunasi bo'lgan "Boburnoma" asaridir.

Bu asar mazmunining rang-barangligi, bir jahon materiyalini o'z ichiga olganligi bilan, til va uslubning go'zalligi bilan XVIII, ayniqsa XIX asr sharqshunos olimlarning diqqatini o'ziga tortgan va uning turli qo'lyozma nusxalari izlana boshlangan va g'arb tillariga tarjima qilishga kirishilgan edi.

Asarning asli nomi "Boburiya" bo'lsada, uni "Voqeanoma", "Tuzuki Boburiy", "Voqeoti Boburiy", deb atadilar, keyinchalik "Boburnoma" degan nom bilan mashhur bo'lib ketdi.

Bu asarning to'liq teksti 1857-yilda tukolog H.U.Ilimenskiy tomonidan Qozonda tipografiya yo'li bilan o'zining to'rt betlik nashr prinsiplarini ko'rsatgan ruscha so'z boshisi bilan bosilgan.

Asarni nashrga tayyorlash va dunyoga chiqarishga H.U.Ilimenskiyning zo'r faoliyati ko'rsatganini alohida qayd etish kerak[3].

Bundan tashqari Zahiriddin Muhammad Boburning ijodiy merosini o'rganish bizning mamlakatimizda ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Andijonlik tabiatshunos olim Zokirjon Mashrabov rahbarlik qiladigan Xalqaro Bobur jamg'armasi (1993.23.12) Bobur ijodini o'rganishda katta ishlarni amalga oshirdi. Jamg'armaning ilmiy ekspeditsiyasi 10 dan ortiq Sharq mamlakatlari bo'ylab avtomobilda ilmiy safarlar uyushtirib, 200 ming km dan ortiq masofani bosib o'tdi, Bobur va boburiylar qadamjolari, ularning ilmiy merosiga oid yangi ma'lumotlar to'plab, ularni ilmiy iste'molga kiritdi. Mazkur ma'lumotlar asosida 10 dan ziyod ilmiy, hujjatli, badiiy asarlar ( S. Shokarimov: „Asrlarni bo'ylagan Bobur“; S. Jalilov: „Boburning Farg'ona davlati“, „Bobur va Andijon“; Qamchibek Kenja: „Hind sorig'a“; X. Sultonov: „Boburning tushlari“, „Boburiynoma“; R. Shamsuddinov: „Boburiylar izidan“, „Boburiylar sulolasi“; T. Nizom: „Uch so'z“), 10 ga yaqin hujjatli, videofilmlar (F. Rasulov: „Bobur izidan“, „Muqaddas qadamjolar“; T. Ro'ziyev: „Bobur salomi“, „Bobur nomidagi Xalqaro ilmiy ekspeditsiya“; T. Hamidov: „Iftixor“ va h.k.) yaratildi. Jamg'armaning Lohur (Pokiston), Haydarobod (Hindiston), Abu Dabi (Birlashgan Arab Amirliklari), Moskva (RF), O'sh (Qirg'iziston), Toshkent, Namangan (O'zbekiston) shaharlarida bo'limlari mavjud. 1998-yil Jamg'armaning boburshunoslik sohasidagi xalqaro mukofotlari ilk marta Pirmqul Qodirov, Sabohat Azimjonova, G'aybulloh as-Salom, Ne'matilla Otajonov, Xayriddin Sultonov, Eyje Mano (Yaponiya), Muhammadali Abduqunduzov, Maqsud Yunusov, Shafiqa Yorqin

(Afg'oniston), Ma'murjon To'xtasinov, Ravshan Mirtojiyev, Majid Tursunov, Rahmonjon Azimov, Muhammadjon Mirzayevga berildi [4].

Yurtimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida tariximizni, buyuk ajdodlarimiz merosini o'rganish va ularni yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu yoshlarni buyuk ajdodlar qoldirgan meros va milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qilyapti. 2023/2024 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun tarix va geografiya yo'nalishlarida Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi davlat stipendiyasi ta'sis etildi [5]. Ushbu chiqarilayotgan qarorlar ham yoshlarni buyuk bobokalonlarimiz hayotini yanada chuqur o'rganishga undaydi.

Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari tomonidan qoldirilgan bebaho ilmiy va ma'naviy-madaniy meros esa buyuk bobokalonlarimiz bilan faxrlanish, yurtni, Vatanni sevisish tuyg'ularini yanada jo'sh urdiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. uchildiz.uz <http://uchildiz.uz>
2. dunyo.info <https://dunyo.uz>
3. cyberleninka.ru <https://cyberleninka.ru>
4. S.Hasanov Boburning, "Risolayi aruz" asari.-T:1986;
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari 25.01.2023-yildagi PQ-20-son.
6. Najmiddinova, M. R., & Jalolova, S. M. (2021). CONTRASTIVE STUDY OF ENGLISH AND UZBEK PUNCTUATION RULES. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(06), 1-5.
7. BALANCES, O. S. W. O. C. ROOTABLE LAYER IN EXPERIMENTAL PRODUCTION SECTIONS. *Ozatboy Bazarovich Imamnazarov, Tokhirjon Olimjonovich Qosimov, Makhmaddali Rustamjonovich Abdullaev ISSN*, 2349-0721.
8. IMAMNAZAROV, O. B., QOSIMOV, T. O., & ABDULLAEV, M. R. (2020). Balances Of Soil Waters Of Cotton Rootable Layer In Experimental Production Sections. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 7(05), 318-321.
9. Jalolova, S. M., Otakulov, N. B., Urmonova, N. M., & Nazarova, D. O. (2022). MODERN METHODS AND TECHNOLOGIES IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(4).
10. Odilov, B., & Karimov, N. (2022). COVERAGE OF ECONOMIC AND CULTURAL TRADITIONS IN THE YEARS OF INDEPENDENCE IN ETHNOLOGICAL RESEARCH (ON THE EXAMPLE OF THE FERGANA VALLEY). *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(3).
11. Имамназаров, О. Б. (1993). Регулирование мелиоративного режима при близком залегании слабоминерализованных грунтовых вод.
12. АГЗАМОВА, Д. Б. (2018). COGNITIVE ANALYSIS OF METAPHORIC PHRASES OF THE CONCEPT "MEMORY" IN THE ENGLISH AND UZBEK BELLES-LETTRES TEXTS. *Иностранные языки в Узбекистане*, (2), 94-100.
13. Odilov, B., & Karimov, N. Archaeological Research is an Important Source in the Study of Traditional Economic Activities of the Uzbek People (On the Example of Some Researchers of the Twentieth Century).
14. Makhmaddovna, M. F., & Agzamova, D. B. (2021). Psycholinguistic studies of pre-wedding and wedding traditions (on the basis of English and Uzbek phraseological units). *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(7).
15. Shodmonov, A. (2022). Coverage of titles in Central Asian Hellenistic Sources. *Eurasian Journal of History, Geography and Economics*, 11, 24-26.
16. Abdullaeva, M., Jalolova, S., Kengboyeva, M., & Davlatova, K. (2021). Universal Human Values as Axiological Values. *REVISTA GEINTEC-GESTAO INOVACAO E TECNOLOGIAS*, 11(2), 802-816.
17. Davlatova, K., & Nematov, O. (2021, November). Traditional jeweleries and decorations. In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 26-28).
18. Shodmonov, A. A. (2021). THE FORMATION OF PRIMITIVE CONSCIOUSNESS AND THE PROCESSES BY WHICH HUMANS ADAPT TO NATURE. *Scientific progress*, 2(6), 1571-1574.